


XI. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2021-yil yanvar-sentabr oylarida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3261,9 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 119,6 %ga oshganini ko‘rish mumkin. Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Olmaliq shahrida 5169,7 ming so‘mni (viloyat o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 158,5 %), Zangiota tumanida 4981,4 ming so‘mni (152,7 %), Qibray tumanida 3645,0 ming so‘mni (111,7 %), Nurafshon shahrida 3421,9 ming so‘mni (104,9 %) tashkil etdi.

Aksincha, Bekobod tumanida 1733,2 ming so‘mni (53,1 %), Bo‘ka tumanida 1756,6 ming so‘mni (53,9 %), Chinoz tumanida 2006,5 ming so‘mni (61,5 %), Oqqo‘rg‘on tumanida 2028,2 ming so‘mni (62,2 %) tashkil etib, ushbu ko‘rsatkichni pasayganligini ko‘rish mumkin.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, %da
(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)






Toshkent viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ming so'mda
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)


Hudud nomi	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	O'sish sur'ati, %da
Viloyat bo'yicha:	2727,3	3261,9	119,6
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	3127,9	3421,9	109,4
Olmalik	4204,9	5169,7	122,9
Angren	2233,4	2603,5	116,6
Bekobod	3342,6	3071,4	91,9
Chirchiq	2555,2	3107,6	121,6
Ohangaron	2697,8	2932,1	108,7
Yangiyo'l	2077,4	2414,9	116,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	1952,3	2028,2	103,9
Ohangaron	2250,0	2609,9	116,0
Bekobod	1680,4	1733,2	103,1
Bo'stonliq	2232,9	2387,8	106,9
Bo'ka	1723,0	1756,6	101,9
Quyichirchiq	2021,4	2274,2	112,5
Zangiota	2851,3	4981,4	174,7
Yuqorichirchiq	2281,4	2257,0	98,9
Qibray	2649,3	3645,0	137,6
Parkent	1803,8	2084,8	115,6
Piskent	1975,3	2170,8	109,9
O'rta Chirchiq	2186,2	2825,0	129,2
Chinoz	1907,0	2006,5	105,2
Yangiyo'l	2481,7	2510,6	101,2
Toshkent	2098,9	2523,8	120,2

Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ming so'mda

(2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik biznes subyektlarisiz)



Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari, %da
(2021-yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)



Ish haqi. 2021- yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda (2020- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm):



Ta'lim sohasida ish haqi fondi 1 609 665,9 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 19,4 %ni) tashkil etgan.

Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2233,9 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 114,8 %ga o'sdi.



Sanoat sohasida ish haqi fondi 4 146 656,0 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 50,0 %ni) tashkil etgan.

Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4042,6 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 114,5 %ga o'sdi.



Qurilish sohasida ish haqi fondi 207 150,2 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,5 %ni) tashkil etgan.

Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4162,9 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 116,4 %ga o'sdi.



Ulgurji va chakana savdo sohasida ish haqi fondi 106 176,6 mln. soʻmni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,3 %)ni tashkil etgan.

Ulgurji va chakana savdo sohasida ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2305,1 ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 90,1 % ga kamaygan.



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatishda ish haqi fondi 959 723,1 mln. soʻmni (jami ish haqi fondidagi ulushi 11,6 %)ni tashkil etgan.

Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2577,9 ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 150,0 %ga oʻsdi.



Tashish va saqlashda ish haqi fondi 53 650,0 mln.soʻmni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,6 %)ni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1939,8 ming soʻmni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 110,9 %ga oʻsdi.



Moliyaviy va sug'urta faoliyatida ish haqi fondi 158 891,7 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,9 %ni) tashkil etgan.

Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 5551,8 mln.so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 122,3 %ga o'sdi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021 - yil 1-sentabrdan 822000,0 so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-yil 17-avgustdagi PF 6279-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
Tel: (71) 202-86-78